O'ZBEKISTON EKSPORT TARKIBINI YUQORI QO'SHIMCHA QIYMATLI MAHSULOTLARGA O'TKAZISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	834
Raximov Eshmurod Normuradovich	
EKSPORT FAOLIYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	838
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI .....	841
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi Farxodova Shohnoza Umidbek qizi	
O'ZBEKISTON HAVO TRANSPORTI TIZIMINING JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	850
Azimova Moxinur Nozimovna	

# MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

dotsenti v.b (PhD)

ORCID: 0000-0001-8270-3348

**Annotatsiya:** Mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash jarayonida bank tizimining rivojlanishi alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Banklar moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, pul-kredit siyosatini takomillashtirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda ichki bozorning likvidligini saqlash orqali iqtisodiy muvozanatni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy bank tizimi nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydi, balki mamlakatning xalqaro moliyaviy tizimga integratsiyalashuvini chuqurlashtiradi. Bu jarayon milliy iqtisodiy siyosatning izchilligi va raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** makroiqtisodiyot, bank, pul-kredit siyosati, investitsiya, moliya, iqtisodiy barqarorlik.

**Abstract:** The development of the banking system plays a strategic role in ensuring the macroeconomic stability of a country. Banks contribute to the effective allocation of financial resources, improvement of monetary policy, financing of investment projects, and maintenance of domestic market liquidity, thereby strengthening economic equilibrium. Furthermore, the modern banking system not only supports internal economic stability but also deepens the country's integration into the international financial system. This process serves as a crucial factor in enhancing the consistency and competitiveness of national economic policy.

**Key words:** macroeconomy, bank, monetary policy, investment, finance, economic stability.

**Аннотация:** Развитие банковской системы играет стратегическую роль в обеспечении макроэкономической стабильности страны. Банки способствуют эффективному распределению финансовых ресурсов, совершенствованию денежно-кредитной политики, финансированию инвестиционных проектов и поддержанию ликвидности внутреннего рынка, что в совокупности укрепляет экономическое равновесие. Кроме того, современная банковская система не только поддерживает внутреннюю экономическую стабильность, но и способствует углублению интеграции страны в международную финансовую систему. Это становится важным фактором укрепления согласованности и конкурентоспособности национальной экономической политики.

**Ключевые слова:** макроэкономика, банк, денежно-кредитная политика, инвестиции, финансы, экономическая стабильность.

## KIRISH

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor maqsadlaridan biri sifatida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish belgilangan. Ushbu yo'nalishda sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash, sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish, yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish asosiy vazifalar qatorida ko'rsatilgan. Ko'rinib turganidek, global miqyosdagi barqaror rivojlanish maqsadlari hamda milliy iqtisodiyotdagi islohotlarning yuqorida keltirilgan barcha yo'nalishlari mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik hamda sanoatlashuv jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi iqtisodiy sharoitda kredit siyosatining samaradorligi nafaqat makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki inflyatsiyani boshqarishda ham muhim o'rin tutadi. Kreditlar orqali iqtisodiyotda iste'mol va investitsiya faolligi shakllanadi, natijada inflyatsion bosim yuzaga keladi va bu holat makroiqtisodiy siyosat uchun muhim signal sifatida xizmat qiladi. O'z navbatida, kreditlarning muddatlari (qisqa, o'rta va uzoq

muddatli) inflyatsiya jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatishi bugungi kunda e'tibor markazida turgan muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga, kreditlar muddatlarining inflyatsiyaga ta'siri borasidagi ilmiy tadqiqotlar cheklangan. Qisqa muddatli kreditlarning inflyatsion bosimni shakllantirishdagi o'rni haqida ba'zi nazariy mulohazalar mavjud bo'lsa-da, empirik tahlillar yetarli emas. Xususan, qisqa muddatli kreditlarning inflyatsiyaga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud bo'lib, bu ta'sir quyidagi ikki kanal orqali namoyon bo'ladi:

- qisqa muddatli kredit mablag'lari bankka qisqa muddatda qaytarilishi iqtisodiyotga resurslarni qayta taqsimlash jarayonlarini jadallashtiradi, bu esa, o'z navbatida, talab tomonidan inflyatsiyaga bosimning yuzaga kelishiga olib keladi;

- qisqa muddatli kreditlar odatda yuqoriroq stavkada ajratilishi hisobiga yuzaga keladigan qo'shimcha xarajatlar korxonalar tomonidan narxlarga ustama sifatida taqsimlanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, tadqiqotlarda qisqa muddatli kreditlarning iqtisodiy o'sishga hissasi yuqori bo'lmasada, mazkur turdagi kreditlar yuqori inflyatsiyaning vujudga kelishiga olib kelishi ta'kidlangan. Aksincha, uzoq muddatli kreditlar ko'pincha "kelajakdagi iqtisodiyotga sarmoya" sifatida baholanadi va ularning iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish salohiyati yuqori deb hisoblanadi [1].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda bank tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, A.Fisher, C.Clark, H.Singer, R.Prebisch, N.Kaldor, P.N.Rosenstein-Rodan, R.Nurkse, A.O.Hirschman, A.Hamilton, F.List kabi taniqli xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonda esa S.E.A'zam, N.B.Xolmatov, E.F.Trushin, L.L.Olenitskaya, Sh.S.Jo'rayev, A.G'.Sharobiddinov, A.F.Rasulev, D.D.Abdurasulova, N.To'xliyev, Sh.B.Tashpulatov, N.G.Muminovlarning ishlarida o'rganilgan.

Shunga qaramasdan, yuqorida nomlari keltirilgan ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiy munosabatlar tizimida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda bank tizimini rivojlantirish muammolarining o'ziga xos jihatlari, bank tizimida tarkibiy o'zgarishlarning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan. Muammoning dolzarbligi, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi va iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha tadqiq etilmaganligi tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga sabab bo'ldi.

## TADQIQOT METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Mavzuni o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash ko'lamini kengaytirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari spektorlarini ko'paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi. Milliy iqtisodiyotni moliyalashtirishda kredit bozori ishtiroki O'zbekistonda haqiqatda yuqori. Moliya bozorining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fond bozori yetarli darajada rivojlanmagan sharoitda kreditga talab nisbatan yuqori. Lekin amalda sof bozor prinsiplari asosidagi kreditlar foiz stavkalari keskin yuqoriligi o'zo'zidan ma'lum darajada talabni pasaytirayotgan omil sifatida ham namoyon bo'layotganligi xususida shu o'rinda to'xtalib o'tishimizga to'g'ri keladi. Oxirgi yillarda jismoniy va yuridik shaxslar qarz yuki ham nisbatan o'sish tendensiyasiga egaligi sharoitida biznes subyektlarining kredit munosabatlariga faol kirishayotganligi ham ayon haqiqat. Bunda yirik aksiyadorlik kompaniyalari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy korxonalar, xorijiy korxonalar, qo'shma korxonalar, oilaviy korxonalar, boshqa kichik va o'rta biznes subyektlari qatori yakka tartibdagi tadbirborlar tomonidan ham bank kreditlariga muntazam talab mavjudligi va muntazam oshib borayotganligi O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning ham doimiy yuqori sur'atlarda oshishini ta'minlamoqda[2].

2018-2025-yillarda O'zbekistonda milliy valyutadagi umumiy kredit qo'yilmalari qoldig'i (ipoteka kreditlarisiz) sezilarli darajada o'sgan - agar 2018-yilda u taxminan 32 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil iyun oyiga kelib bu ko'rsatkich 260 trln so'mga yetdi. Kreditlash sur'atlarining jadal o'sishi bilan birga, kreditlar tarkibida muddat jihatidan qisqa muddatli qarzlardan uzoq muddatli qarzlarga siljish kuzatilgan. Xususan: Qisqa muddatli kreditlar (1 yilgacha) ulushining qisqarishi. 2018-yilda 1 yilgacha bo'lgan kreditlar umumiy kredit qo'yilmalari

qoldig'ining taxminan 12 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib, nominal hajmda o'sish kuzatilganiga qaramay, bu ko'rsatkich 5 foizgacha tushdi. 2025-yilda esa qisqa muddatli kreditlar ulushida sezilarli oshish (iyun oyida 7,8%) qayd etilgan bo'lib, bu holat mavsumiy yoki operatsion xususiyatga ega - masalan, ayrim tarmoqlarda vaqtinchalik likvidlik ehtiyoji ortgan bo'lishi mumkin. 2-5 yillik kreditlar segmenti jadal o'smoqda. Ayniqsa, 2-3 yillik kreditlar eng tez o'suvchi segmentga aylandi: agar 2018-yilda bu turdagi kreditlar 7,4 trln so'mni (23%) tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil iyun holatiga kelib 63,6 trln so'mga (24,5%) yetdi[3].

Shuningdek, 3-4 va 4-5 yillik kreditlar umumiy hisobda 15 barobarga o'sgan - 2018-yildagi 6,8 trln so'mdan 2025-yil iyunida 90,4 trln so'mgacha. O'rta muddatli kreditlash asosiy moliyalashtirish vositasiga aylanmoqda. Bu holat xususiy va korporativ sektorda investitsiya faolligining oshganligini ko'rsatishi mumkin. - 5 yil va undan yuqori bo'lgan kreditlarda sezilarli siljish kuzatilmoqda. Agar 2018-yilda 5-10 yil va 10 yildan yuqori muddatli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 18 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2025-yil iyun holatiga kelib, bu ko'rsatkich 21 foizga yetdi. Ushbu segmentdagi kreditlar hajmi 5,7 trln so'mdan 55,3 trln so'mgacha o'sdi. Ayniqsa, 5-10 yillik kreditlar guruhida deyarli 10 barobarlik o'sish kuzatilgan - 5,1 trln so'mdan 39,9 trln so'mgacha. Uzoq muddatli kreditlashning barqaror rivojlanishi, ayniqsa, investitsiyaga yo'naltirilgan sohalar (masalan, sanoat va qurilish)da, moliyaviy tizimga bo'lgan ishonchning oshganini va korxonalarining investitsiya rejalaridagi muddatning uzayotganini ko'rsatadi.

Qisqa muddatli kreditlar, odatda, yuqori foiz stavkalarida ajratiladi. Bu, avvalo, bunday kreditlar kreditor uchun foyda jihatdan kamroq daromad keltirishi va qaytarish xavfi yuqoriroq bo'lishi bilan izohlanadi. Xususan, qisqa muddatli kreditlar, odatda, kam miqdorda beriladi va ularni qaytarish muddati qisqa bo'lgani uchun, foiz stavkasi yuqori bo'lsa-da, kreditor umumiy hisobda nisbatan kamroq foiz daromadi oladi. Aksincha, uzoq muddatli kreditlarda foiz stavkasi pastroq bo'lishiga qaramasdan, to'lovlar uzoq muddat davomida amalga oshirilganisababli umumiy foizto'lovi ancha yuqori bo'ladi. Shuningdek, foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri — qarzni qaytarmaslik xavfi hisoblanadi. Qisqa muddatli kreditlar, odatda, osonroq rasmiylashtiriladi (garov talab etilmaydi), shu sababli ularga aksar hollarda kredit tarixi yoki reyting darajasi past bo'lgan qarz oluvchilar murojaat qiladi. Bu esa umumiy xavf darajasini oshiradi va natijada foiz stavkasi yuqoriroq belgilanadi [4].

Jami kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi tahlil qilinayotgan deyarli barcha davr (2018-2025-yy.) mobaynida 21-24 foiz oralig'ida shakllangan. 2024-yilda bu ko'rsatkich 23,4 foizgacha pasaygan bo'lsa, 2025-yil aprelida 22,8 foizni tashkil etdi (1-jadval).


1-jadval. 2018-2025-yillarda milliy valyutada ajratilgan kreditlarning muddatlari bo'yicha foiz stavkalari tahlili

	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil (aprel)
<b>Jami kreditlar</b>	<b>21,8</b>	<b>24,8</b>	<b>18,8</b>	<b>20,8</b>	<b>22,3</b>	<b>24,0</b>	<b>23,4</b>	<b>22,8</b>
<b>Qisqa muddatli kreditlar</b>	<b>22,4</b>	<b>24,7</b>	<b>18,4</b>	<b>21,2</b>	<b>22,2</b>	<b>23,7</b>	<b>21,3</b>	<b>23,1</b>
60 kungacha	21,7	24,3	19,5	21,7	23,3	24,8	23,9	24,3
61 kundan 90 kungacha	22,3	25,8	18,7	20,6	24,2	23,5	24,1	24,7
91 kundan 180 kungacha	21,7	25,5	17,0	21,3	19,5	24,5	24,0	23,8
181 kundan 365 kungacha	22,5	24,3	19,7	21,2	22,1	23,2	20,5	23,0
<b>Uzoq muddatli kreditlar</b>	<b>21,5</b>	<b>25,1</b>	<b>19,1</b>	<b>20,5</b>	<b>22,4</b>	<b>24,2</b>	<b>24,4</b>	<b>22,7</b>
1 yildan 2 yilgacha	21,6	24,8	19,6	21,4	23,0	24,0	23,5	23,5
2 yildan 3 yilgacha	23,2	27,6	20,1	22,7	23,4	25,1	26,5	24,6
3 yildan 4 yilgacha	23,3	24,4	19,4	20,8	24,8	25,8	23,8	21,6
4 yildan 5 yilgacha	19,0	21,0	19,0	21,5	22,9	27,1	26,6	24,7
5 yildan 10 yilgacha	19,7	20,0	18,3	19,0	22,6	24,2	24,4	21,9
10 yildan yuqori	18,2	18,5	17,2	17,2	17,8	18,1	19,5	19,4

Qisqa muddatli kreditlar (1 yilgacha) bo'yicha foizstavkalari asosan bozor o'rtacha stavkasi darajasida saqlangan. 2020-yilda pandemiya sababli pasayish, 2023-yilda esa jadal o'sish kuzatildi. 2025-yilda bu turdagi kreditlar bo'yicha stavka 23,1 foizgacha ko'tarilgan bo'lib, o'z navbatida, likvidlikka bo'lgan qisqa muddatli ehtiyoj bilan izohlanishi mumkin. 2-3 yillik kreditlar eng yuqori foiz stavkalariga ega bo'lgan segment hisoblanadi — 2018-yilda 23,2 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 26,5 foizgacha ko'tarilgan. Buholat, birinchi navbatda, ushbu muddatli kreditlarga bo'lgan talabning yuqoriligi bilan izohlash mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, 2-5 yillik o'rta muddatli kreditlar hozirda umumiy kredit portfelining taxminan 60 foizini tashkil etib, ular bozordagi eng faol segmentga aylangan. Shuningdek, 3-5 yillik kreditlar ham qariyb 25 foiz atrofidagi foiz stavkalari bilan

yuqori foizli segmentsifatida saqlanib qolmoqda. 10 yil va undan yuqori muddatli kreditlar tahlil davri mobaynida eng past foiz stavkalariga ega bo'lgan — taxminan 17,0-19,5 foiz atrofida. Bu holat investitsiyaga yo'naltirilgan sohalar (qurilish, sanoat) uchun uzoq muddatli kreditlashning ustuvorligi, shuningdek, bu segmentdagi qarz oluvchilarning moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin [5].

Shu bilan birga, 2019-2024-yillarda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning qaytuvchanligi darajasida sezilarli yaxshilanish qayd etilib, bu ko'rsatkich 2019-yildagi 51 foizdan 2024-yilda 77 foizgacha oshdi (1-rasm).




1-rasm. 2019-2024-yillarda ajratilgan kreditlarning qaytuvchanlik darajasi, foizda

Jahonda global raqobatning kuchayib borishi sharoitida milliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining tutgan o'rnini makroiqtisodiy tadqiq qilish borasida keng doiradagi izlanishlar olib borilmoqda. Xizmatlar sohasini tasniflash, toifalash va tarkibini tartiblash, xizmatlarni aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, YalMdagi ulushini aniqlash va uning iqtisodiy o'sishga qo'shadigan hissasini baholash, xizmatlar sohasining xalqaro savdodagi o'rnini tadqiq etish, xizmatlar sohasidagi innovatsiyalarni va raqamlashtirish jarayonlarini, ishchi kuchi talabini va ushbu sektordagi bandlik darajasini tahlil qilish, xizmatlar sektorini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va qonunchilik tashabbuslarining samaradorligini, xalqaro bozorlar bilan integratsiyasi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik darajasini baholash bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi sharoitida banklar tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlarni tadqiq qilish va ularning xususiyatlarini o'rganish masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Sababi, bugungi kunda banklarning xizmatlar ko'rsatish amaliyoti zamonaviy texnologiyalar asosida keskin o'zgarishlarga duch kelmoqda [6]. Bu esa, banklar va mijozlar o'rtasida xizmatlar ko'rsatish va ularning o'zaro munosabatlarini tartibga solishni taqozo etadi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida tijorat banklari moliyaviy xizmatlari tarkibiga turli omillar ta'sir qilib, xizmatlarini sifatli tashkil etishni birinchi darajaga qo'ymoqda. Banklarning xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni kredit berish va depozitlarni jalb qilish xizmatlari egallaydi.

Bank mahsuloti muayyan bank texnologiyalaridan foydalanib, alohida ko'rinishdagi bank faoliyatining mijozlar talabini qondirishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bank xizmatlari va operatsiyalari majmuasi hisoblanadi. Bank mahsuloti mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan o'zaro bog'liq bank va moliya operatsiyalari majmuasi bo'lib, mijozning muayyan ehtiyojini hal qilish va xizmat ko'rsatilishiga talabini qondirish imkonini beruvchi yangi bank xizmati yoki an'anaviy bank xizmatlari hisoblanadi. Tijorat banklari mahsulotlari va moliyaviy xizmatlarining sifati mijozlar ehtiyojlarini qondirishi va bu jarayonda turli xatarlarning kelib chiqishini ta'minlash xususiyatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi hisoblanadi [7].

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida faoliyat yuritayotgan bank xizmatlari bozorida eng yuqori ulushga ega 5 ta bankning aktivlari ulushi o'zgarishida kamayish tendensiyasi kuzatilgan. Bunda banklar ulushining asosiy qisqarishi Milliy bank (4,9 foiz), Asakabank (3,9 foiz) hissasiga to'g'ri kelgan. Bank tizimidagi TOP 5 ta bankning ulushi 2019-yilga (65,7 foiz) nisbatan 5,3 foizga qisqargan va 2023-yil yakunida 57,4 foizni tashkil etgan (2-rasm).



2-rasm. Bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlari tahlili, foizda

Banklarning xizmatlari sifatiga bir qator omillar ta'sir qiladi va ular quyidagilardan iborat: bankning xizmatlar bozoridagi obro'yi va moliyaviy barqarorligi, bankning xususiy kapitali, aktivlari miqdori, milliy va xalqaro reyting ko'rsatkichlari, barqaror mijozlar bazasi va uning barqaror o'sishi, to'lov tizimlari bilan hamkorligi va mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar doirasi, bank filiallar tarmog'ining holati va uni kengaytirish istiqbollari, bank tomonidan samarali reklama siyosati yuritilishi, bankdagi mavjud malakali xodimlar, tajribali boshqaruv, zarur dasturiy ta'minot. Tijorat banklarida xizmatlar sifatini bankning barcha talablarga muvofiqligi orqali baholanadi va boshqariladi. Bank har bir ko'rsatiladigan xizmat bo'yicha talablarni belgilashi va ushbu talablarni muvofiqlashtirishi lozim. Banklar mijozlarga zarur vositalarni sotib olish uchun yuqori foiz stavkada ajratiladigan kreditlar o'rniga ishlab chiqaruvchilar muddatli to'lovlar evaziga sotish taklifi bank kreditlari marjinalligini pasaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan aholiga va xo'jalik yurituvchi subyektlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar miqdor va sifat ko'rsatkichlari jihatidan xalqaro bank amaliyoti andozalari talablariga javob berishi muhim ahamiyat ega. Mamlakatda banklararo raqobat muhiti to'liq shakllanmaganligi mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning turi va sifatini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bank tizimida raqobatning kuchayishi natijasida bank kreditlari foiz stavkalari pasayib va depozitlar foizli xarajatlarining yuqori o'sish sur'atlari banklar marjasini qisqarishiga olib kelmoqda. Bank mijozlarning kreditlari pasaygan stavkalarda bo'lishini kutishi va bozor xizmatlari bozorida raqobat kuchayishi, aksariyat tijorat banklari mijozlarni saqlab qolish va likvidlikni oshirish uchun yuqori depozit stavkalarini taklif qilishga majbur qilmoqda. Jahon bank xizmatlari bozori rivojlanishi bank mijozlariga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati raqamli xizmatlar rivojlanishi darajasiga bog'liqligida yaqqol namoyon bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda bank xizmatlari bozorida raqobatda ustun bo'lish uchun xalqapo amaliyotda bank xizmatlarini ko'rsatishdan tashqari mijozlar faoliyatini yuritishga ko'maklashish va uning faoliyatida ekotizimga jalb qilish orqali banklararo raqobat sharoitida mijoz bazasini kengaytirib bormoqda [8].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining xizmatlar bozorida raqobatini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar va o'rganishlar natijasida quyidagi xulosalar mavjudir. Olingan natijalar 2-4 yillik kreditlar inflyatsiyaga ta'sir qilmaydi, deb emas, balki ularning ta'siri kechiktirilgan va ehtimol, bilvosita tusga ega ekanini ko'rsatishi mumkin. Bu esa ushbu ta'sirni baholashda kengroq vaqt doirasi va murakkabroq modellar talab etilishini anglatadi. Mazkur xulosalardan kelib chiqib, inflyatsiyani samarali tarzda boshqarish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish

uchun kredit siyosatining muddatlar tuzilishiga yo'naltirilgan yondashuvni shakllantirish bo'yicha qo'shimcha o'rganishlar olib borish zarur. Tijorat banklari xizmatlarining iqtisodiy mazmuni va ko'zlangan maqsadiga ko'ra, ikki yirik guruhga bankning likvidligini saqlab turish uchun bajariladigan xizmatlar va bankning daromad olish maqsadida bajariladigan xizmatlarini ajratish mumkin.

Bank xizmatlari bozori iqtisodiyot subyektlari tomonidan banklar pul va moliyaviy derivativlariga talab va taklifni shakllantirishning murakkab sohasi bo'lib, hamkorlarni erkin tanlash va o'zaro munosabatlarga kirishish bilan tavsiflanadi. Bank xizmatlari bozori infratuzilmasining asosiy ishtirokchilari Markaziy bank va uning hududiy muassasalari, barcha mulk shaklidagi tijorat banklari, to'lov tashkilotlari va to'lov tizimlari, mikro kredit va lombard tashkilotlari, soliqlar va yig'imlar tizimi, axborot va texnologik tizimlar, birjalar, auditorlik firmalari, konsalting kompaniyalaridan iborat. Bank xizmatlari bozorida raqobat kurashi sharoitida yuqori samaradorlikni ta'minlash maqsadida foizsiz daromadlari kamida 40 foizdan yuqori bo'lishi kelgusida bankning xizmatlar bozorida faoliyatining yuqori samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishi asoslangan. O'zbekiston bank tizimida banklararo raqobatni tartibga solishda qo'shilish va birlashishlar jarayonida bozordagi yirik banklarga o'tkazilishi, bank xizmatlari bozorida muhitga o'z ta'sirini baholashda AQSh tajribasidan foydalanib, Herfindal Xirshman indeksini 200 punktdan ortiq oshirishga yo'l qo'yilmaslikning huquqiy asoslarini yaratish va joriy etish maqsadga muvofiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Statistika va tadqiqotlar departamenti ma'lumotlari.
2. O.Ortiqov. Tijorat banklari xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish yo'llari Avtoreferat. Toshkent 2025y.3-27 betlar.
3. Тавасиев А.М. Банковское дело: Учебник для бакалавров / А.М. Тавасиев.- М.: Юрайт, 2017. -647 с.
4. Т.Маликов, N.Найдаров - Budget daromadlari va harajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent:"Iqtisod-moliya, 2007.
5. G'aybullayev, U O'roqov.O'zbekiston Respublikasida budget tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. - T.: Baktriapress, 2016.
6. Банковской дело. / Под ред. Лаврушина О.И. – М.: "КноРус", 2008.
7. Деньги, кредит, банки. / Под ред. проф. Лаврушина О.И. – М.: "КноРус", 2009.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari <https://cbu.uz>



**TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

# **IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI**

**YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT**

**Ilmiy elektron jurnal**

**(MAXSUS SON)**

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani  
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS  
AND MATHEMATICS

23-24

OCTOBER  
2030

23-24  
OCTOBER  
2025

1st CONFERENCE:  
DIRECTIONS FOR ENSURING  
SUSTAINABLE ECONOMIC  
GROWTH IN THE CONTEXT OF  
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

3RD CONFERENCE:  
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:  
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL  
AND NATIONAL ECONOMIC  
TRENDS"

UZBEKISTAN  
STRATEGY  
23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE  
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND  
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT  
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:  
BANKING AND  
FINANCIAL SYSTEM AND  
DIRECTIONS FOR DEVELOPING  
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025  
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda  
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro  
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ  
«УЗБЕКИСТАН –2030»

23-24 2025  
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda  
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro  
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

[strategy2025.tsue.uz](https://strategy2025.tsue.uz)

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH  
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY  
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS  
ФОРУМ UZBEKISTAN  
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: [sq1141983@gmail.com](mailto:sq1141983@gmail.com)

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: [https://t.me/taraqqiyot\\_va\\_talim\\_uz](https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz)

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL  
AND NATIONAL ECONOMIC  
TRENDS"

1st CONFERENCE:  
DIRECTIONS FOR ENSURING  
SUSTAINABLE ECONOMIC  
GROWTH IN THE CONTEXT OF  
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030  
UZBEKISTAN  
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI  
VA XUSUSIY SEKTORNI  
RIVOJLANTIRISH  
YO'NALISHLARI